

Sobirova Gulnoza
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti
Adabiyotshunoslik (koreys adabiyoti)
mutaxassisligi magistranti
(90) 9355813; sindi_love@mail.ru

Adabiyot - xalqning o`zligini namoyon etuvchi, o`zida dolzarb masalalarni qamrab olib ko`zgudek ko`rsatuvchi mohir san'atdir. Koreys adabiyotining zamonaviy she'riyat davri 1910 yildan boshlangan bo`lib, bu davrda Koreya Yaponiyaning mustamlakasi ostidagi davlat hisoblangan. 1910 yildan to 1945 yilgacha bo`lgan davrni o`z ichiga olgan Yaponiya mustamlakasi Koreya tarixida "zulmat davri" nomi bilan ham mashhurdir. Bunga sabab, XIX asrda Koreya Yaponiyaning mustamlakasiga aylanganligi bo`lib, XIX asrning ikkinchi yarmidanoq G`arbda "qoloq davlat" deb atalgan Koreyani kuch bilan qo`lga kiritish-"ochish" harakati boshlangan edi. Ketma-ket tuzilgan noto`g`ri siyosiy bitimlar 1876 yil Yaponiya bilan , undan keyin AQSh (1882 yil), Angliya (1883 yil), Rossiya (1884 yil), Fransiya (1886 yil) Koreyani mustamlaka qilib olishdagi jang maydoni ob'yektiga aylanishiga sabab bo`ldi va natijada bu jangda Yaponiya g`olib chiqdi.

XX asrning 1920-yillarida koreys she'riyati murakkab tarixiy davr sharoitlarida rivojlandi. Bu davrda Koreya jamiyati chuqur ma'naviy inqirozga yuz tutgan, u jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan edi. Mustamlakachi ma'murlarning mafkuraviy xuruji eng avvalo koreys madaniyati, tili va adabiyotini yo`q qilib tashlashga qaratilgan edi. Tabiiyki, koreys she'riyatida teran o`zgarishlar yuz beradi, yapon, so`ng esa Yevropa adabiyoti bilan koreyaliklarning tanishuvi butunlay yangi she'riyatning paydo bo`lishi jarayonini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Yapon mustamlakachilik siyosati va ijtimoiy –siyosiy qonun-qoidalar, xalqning ma'daniy, ijtimoiy turmushi, uning milliy ruhi, "orzu umidlar bilan insonlarning haq-huquqsizliklari orasidagi "nomutanosiblik " dan yuzaga kelgan she'riyatdagi romantizm yo`nalishi taraqqiyoti yapon istibdodiga qarshi o`ziga xos ma'naviy isyon, xalqning javobi edi.

O`tgan asrning boshida koreys adabiyotida bir qator yangi adiblar maydonga chiqadi. G`arb, Osiyo falsafasi bilan tanishish, adabiy yo`nalishlarning nazariy asoslarini anglab yetish orqali ular Yevropa poetikasi yutuqlarini Koreya zaminiga ko`chirishga, shu tariqa o`z mamlakatining poetik an'anasini boyitishga harakat qiladilar.

O`z mamlakati adabiyotini yangicha mazmun, yangi badiiy vositalar bilan boyitish bilan bir qatorda, o`z mamlakatining vatanparvarlari sifatida maydonga chiqqan va mustaqillik uchun kurashda ishtirok etgan iste'dodli ijodkorlar orasida Xan Yon Un alohida o`rin egallaydi.

Xan Yon Un – oz shaxsiyati bilan ham hech kimga o`xshamaydigan ijodkor. Hayot tajribasiga, maktabda, buddaviylarning ibodatxonalarida ta'lim olish jarayonida o`zlashtirilgan bilimlarga asoslangan o`z hayot falsafasiga ega bo`lgan inson. Xan Yon Un tarkidunyochilik yo`lini tanlab, rohiblik rutbasini kiyganiga qaramay, u yapon mustamlakachilariga qarshi kurashda faol ishtirok etadi. Buddaviy ruhoniylar yo`lini tanlagan Xan Yon Un xalqni o`z haqqini tanishga chorlovchi va'zxonlik faoliyatini olib boradi. Shunday qilib, uning she'rlari ibratomuz xususiyat kasb etadi.

Shoir 1879 yil Chxunchxon-namdo provinsiyasi, Chxonnam uyezdi, Kelson bo`lisining Songonni qishlog`ida tug`ildi. U xususiy maktabni tamomladi, unda xitoy tili va adabiyotini o`rgandi. Keyinchalik u ta'lim olishni mustaqil ravishda davom ettirdi va bu borada katta yutuqlarga erishdi. Zamondoshlari uni Koreyaning eng o`qimishli odamlaridan biri sifatida tan oldi.

1896 yil Xan Yon Un "Tonxak" harakati a'zolari safiga qo`shiladi va feodalizmga qarshi kurashda, ushbu harakat namoyandalari rahbarligida ko`tarilgan dehqonlarning qo`zg`olonlarida faol ishtirok etadi. Harakat tor-mor qilinganidan so`ng Xan Yon Un Soraksan tog`laridagi buddaviylarning Osansa ibodatxonasiga keladi va bu yerda rohiblik rutbasini kiyib, bir necha yil buddizmni o`rganadi, ayni vaqtda hozirgi zamon koreys va g`arb adabiyotini mutolaa qiladi, Yevropa falsafasini o`zlashtiradi. Xan Yon Un diniy bilimlarga va falsafaga bo`lgan qiziqish juda ham kuchli bo`lgan. Shuning uchun ham u nafaqat, buddizm falsafasini, balki Yevropa falsafasini ham chuqur o`rgangan. Bu esa, uning ijodiy faoliyatida bevosita o`z aksini topgan.

1905 yilda Xan Yon Un Kanvondo provinsiyasidagi Pekkamsa ibodatxonasida yana rohiblik rutbasini kiyadi va Yaponiyaga jo`nab ketadi. U yerda Xan Yon Un Tokio, Kioto va boshqa joylardagi buddaviylarning ibodatxonalariga tashrif buyuradi, buddizm va Sharq falsafasini o`rganadi, yapon va koreys buddizmining farqlari to`g`risida o`z fikr-mulohazalarini qayd etadi¹.

¹ Қаранг: Галкина Л.В. Корейская поэзия 20-х годов XX века. – Владивосток, 1988. С.23.

O`z yurtiga qaytib kelgach, Xan Yon Un buddizm falsafasini o`rganishni davom ettiradi, asosiy e`tiborni buddizmning koreyscha turiga qaratadi. Taxminan shu davrda Xan Yon Un she`r yoza boshlaydi. Uning ijodida Yevropa she`riyati va Koreya milliy an`analarining o`ziga xos uyg`unligi, buddizm falsafasi ohanglari aks etadi. Ayni shu sababli Xan Yon Un she`rlari ba`zan mistik xususiyat kasb etadi.

Shoirning hayoti va ijodiy yo`liga nazar tashlash Xan Yon Unning hayoti bir nechta taqdirni – tarki dunyo qilgan rohib taqdiri, adolat va Koreyaning mustaqilligi uchun kurashchi taqdiri, sevgi bilan bog`liq kechinmalarga to`la oddiy odam taqdirini o`z ichiga oladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Xan Yon Un she`riyati ikki omilga – buddizm falsafasi va “simvolizm” yangi adabiy yo`nalishiga tayanadi.

Men – daryoning kechuv joyidagi qayiqman,
Sen esa – mening yo`lovchimsan,
Seni, yelkamda iflos boshmoqlarda turgan odamni,
Men daryodan olib o`tyapman,
Tezoqar, chuqur va xavfli daryodan.
Sen daryoning narigi tomonida,
Xavfsiz joyda bo`lganda,
Menga hatto qayrilib ham qaramaysan,
Sen o`lasan-da, ketasan.
Iltimos, qayt, iltimos, qayt!
Senga behuda yolvoraman,
Qalbimning og`rig`i, tanamning dardi bilan.
Men seni kechasiyu kunduzi kutaman.
Men – daryoning kechuv joyidagi qayiqman,
Sen esa – mening yo`lovchimsan.
(“Daryoning kechuv joyidagi qayiq”)²

² Галкина Л.В.Корейская поэзия 20-х годов XX века. - Владивосток,1988. С . 92.

Bu she’rda muallifning asosiy e’tibori buddizm g’oyasini timsollar vositasida badiiy ifodalashga qaratilgan. She’r buddizm falsafasiga yo’g’rilgan bo’lib, unda shoirning falsafiy qarashlarini ko’rishimiz mumkin. Shoir daryoning kechuv joyidagi qayiq o’rnida o’zini tasavvur qiladi va dunyoni qutqarayotgan bodxisatva³ sifatida tushunadi. She’rda shoir dunyoning o’tkinchiligini, har bir inson bir kunmas bir kun bu yorug’ olamni tark etishini nazarda tutadi. Buddizm an’anasi Xan Yon Unni o’z mamlakatining adabiy an’anasiga, o’rta asrlarda ancha keng tarqalgan tarkidunyochilik kayfiyatlariga qaytaradi. Mazkur she’rni yozish janri o’rta asrlar koreys she’riyati janri – sijo (uch misrali qofiyasiz she’r)ni eslatadi. O’xshashlikni she’r mazmunining o’ziga xos xususiyatlari asosida kuzatish mumkin. Ammo shakl jihatidan she’r o’zgargan va bu hozirgi zamon she’riyatida sifat o’zgarishlari yuz berganini ko’rsatadi.

Bu foniy dunyoni tark et, deydi u.

Shunda men unutilishga erishgan bo’lur edim.

Shu sababli men boshpana qurish uchun toshlarni yo’ndim.

Quduq qazish uchun men toshlarni kesdim.

Bulutlarni mehmon sifatida qabul qilaman.

Ular erkin keladi va ketadi.

Oy esa, baayni soqchi yanglig’,

Bambuk eshik uzra bedor yaltiraydi.

Qushlar qo’shig’i – mening musiqam.

Qarag’ aylar shoxini silkitayotgan shamol – mening she’rim,

Va ular qo’shiq qilib kuylanadi

Qadim zamonlardan beri (...).

(“Zohid qo’shig’i”)⁴

Xan Yon Un ijodi – yangi davr koreys she’riyatida betakror hodisa. U milliy adabiy an’ana, buddizm an’anasi va chet el adabiyoti ta’sirini ozida mujassamlashtirgan. Ayni hol Xan Yon Un 26 yoshida tarkidunyochilik yo’lini tanlagan va buddaviy rohib rutbasini kiygani bilan izohlanadi. Yuqoridagi “Zohid qo’shig’i” she’rida ham Xan Yon Unni tarkidunyochilik yo’lini tanlaganligini,

³ Аманова Г.А. Корейская поэзия 20-х – 40-х гг. XX в. – М., 2007. С. 209.

⁴ Галкина Л.В. Корейская поэзия 20-х годов XX века. – Владивосток, 1988. В. 90.

bu dunyoning barcha noz – ne’matlaridan voz kechib, o’zini butunlay rohiblikka bag’ishlaganligini ko’rishimiz mumkin. Xan Yon Unni ko’plab she’rlarida tarkidunyochilik kabi shoirning o’ziga xos falsafiy qarashlarini guvohi bo’lishimiz mumkin.

Xan Yon Un hayotida og’ir davrlar, chuqur ruhiy iztiroblar va inqirozlar davrlari bo’lgan. Hayotning mazkur bosqichlarida kundalik turmush ziddiyatlari uncha yechib bo’lmaydigan muammolar bo’lib tuyulgan. Biroq hatto g’am-hasratga to’la she’rlarda ham baxt-sodat orzusi shoirni tark etmaydi. Uning eng g’amgin misrasi ortida ham yuksak va go’zal tuyg’ular nafasi seziladi. Bu fojeyaviy kontrastlar olamini yaratadi. Xan Yon Un hech qachon dahshat va iflosliklar tavsifini she’riyat vositalari yordamida tarannum etmaydi, ro’yaga hech qachon mahliyo bolmaydi, balki har doim dunyoda ularning mavjudligini o’ylab iztirob chekadi. Ezgulikka, hayotning go’zalligiga, insonga bo’lgan ishonch, ruhlantiruvchi insoniylik pafosi Xan Yon Un ijodining bosh mezoni hisoblanadi.

Xan Yon Unning ijodidagi falsafiy qarashlarga Sharq adiblari, ayniqsa Rabindranat Tagor ijodi kuchli ta’sir ko’rsatgan.

Koreyalik shoirlar e’tiborini ko’proq Tagorning falsafiy g’oyalari, uning asarlaridagi pasifizm va insonparvarlik ruhi o’ziga tortgan. Ayni hol mamlakatdagi vaziyat bilan izohlangan.

Koreyada Tagor she’riyati bilan Xan Yon Un ismi ham bog’liq. Bu shoir buyuk hind insonparvar adibi asarlarini tarjima qilish bilan bir qatorda, o’zi ham uning g’oyalari ta’sirida ijod qilgan. Tagorning ta’siri asosan shoirning sevgi lirikasidagi falsafiy qarashlarda o’z aksini topgan.

서명: 이태형

서명: 이태형

서명: 이태형

서명: 이태형

서명: 이태형

Sevgini o`z nomi bilan atash – boshqa sevmaslik demak.
Azob chekayotganda kulayotgan lab-atirgulni qimtish mumkinmi?
Kuzgi suvlarning ko`zlarida g`am-g`asrat zulmatini aks ettirish
Va yoshli ko`zlar osha tikilish mumkinmi?
Muhabbat – bu qop-qora bo`lmagan bulutlar ortidagi,
Sukunat og`ushidagi tog`lar ustidagi,
Had-hududsiz, o`tib bo`lmas tasavvur dengizi ustidagi hodisa...

(“Sevgining mohiyati”)⁵

Bu she`r shoirning yorqin she`rlaridan biri hisoblanadi, u javobsiz muhabbat ta`siridagi kechinmalar dunyosini aks ettiradi, badiiy tasavvurni falsafiy talqin bilan uyg`unlashtiradi. Uning lirikasi – bu muhabbat madhiyasi, uni ilohiylashtiruvchi bir manba. Ilohiy hodisa bo`lgan sevgini aniqlash yoki o`lchash mumkin emas. Uni birovning qalbiga solib qo`yish yoki uni o`zidan biron-bir to`siq bilan uzoqlashtirishning ham iloji yo`q. Shoir o`zining “Sevgining mohiyati” deb nomlangan she`rida aynan shu haqda mulohaza yuritadi.

Rabindranat Tagor g`oyalari va ijodining ta`siri ular dunyoqarashi, dunyo haqidagi tasavvuri va she`riy uslubining birligida namoyon bo`ladi. Rabindranat Tagor uchun inson, tabiat, ilohiylik – bu yaxlit va bir butun hodisa: “Men dunyoni faqat tashqi ko`zlarim bilan uzoq kuzatdim va uning quvonch bilan yo`g`rilgan qiyofasini ko`rmadim, qalbimning teran qatlamlaridan ezgulik nuri qo`qqisdan sirtga otilib chiqqach, u menga butun dunyoni yoritdi va shundan beri bu dunyo menga son-sanoqsiz narsalar va hodisalar uyumi bo`lib ko`rinmay qo`ydi, balki qarshimda yaxlit va bir butun hodisa sifatida gavdalandi”⁶.

Xan Yon Un ham ilohiy mohiyat tabiat va inson bilan uzviy deb hisoblaydi, shu sababli ularning ajralmasligi g`oyasi shoir ijodining bosh mezoni hisoblanadi va uning falsafiy lirikasi o`zagini tashkil etadi. Xan Yon Un va Tagor ijodini dunyoning ma`naviy asosi haqidagi yagona tasavvur birlashtiradi. Ushbu asos ongga ega bo`lgan universal jon hisoblanadi va borliqning negizini tashkil etadi.

⁵ 한운의 시, 1996.

⁶ Рабиндранат Тагор. Жизнь и творчество. – М., 1986. С. 50.

Xan Yon Un she'riyati mazmun jihatidan keng, tafakkur mezoniga ko'ra chuqur va o'z badiiy uslubiga ko'ra betakrordir. Shoirning falsafiy lirikasi hayotning mazmuni haqidagi teran mulohazalar va tafakkurning faol ishlashi bilan tavsiflanadi. Unda Xan Yon Un mavhumlik bilan yo'g'rilgan falsafiy tafakkurni she'riy shaklga solishga muvaffaq bo'lgan.

영혼의 장막 아래에 마음의 문을 열어

영혼의 문을 열어 마음의 문을 열어

나는 영혼의 문을 열어 마음의 문을 열어 마음의 문을 열어 마음의 문을 열어

이제 마음의 문을 열어

영혼의 문을 열어 마음의 문을 열어 마음의 문을 열어

고요한 밤에

영혼의 문을 열어

영혼의 문을 열어 마음의 문을 열어 마음의 문을 열어

영혼의 문을 열어 마음의 문을 열어

고요한 밤에 영혼의 문을 열어

영혼의 문을 열어 마음의 문을 열어

Senga loyiq bo'lmagan menga aslo shubha qilma,
Axir bu kundan-kunga kuchayib borayotgan og'riq-ku.
Sevgilimni o'z og'ushimda his qilar ekanman,
Egnimda kiyim bolsa ham, fikrlarim va qalbim yalang'och.

Endi men qarshingda turibman,
Qalbim senga nisbatan hurmatga to`la.
Agar aybim bo`lsa, bu ayb
Mening sevgi bilan yo`g`rilgan g`am-hasratim.
Sen ketar ekansan, mening lablarimda so`zlar qotib qoladi,
Buning sababi – sening buzilgan va`dangda.
Kechir...
Agar kechirmasang, menga jazo bo`ladi
Sershamol bahor, tong... hammasi sensiz.
Men ahdimdan qaytmayman, tashlab ketmayman,
Sening muhabbating xivchinlari bilan
Ayovsiz kaltaklangan bo`lsam ham.
Sening muhabbating xarobalari ostida
Men ozodlikdan mahrumman.
Shubha qilma, axir bu
Kundan-kunga kuchayib borayotgan og`riq.

(“Shubha qilma”)⁷

Yuqorida keltirilgan she`rning badiiy vositalar tizimi o`ziga xosligi bilan e`tiborni tortadi. Bu ham misralarning o`ziga xos ko`p bosqichliligi, ham majoziy so`zlar va iboralarning murakkabligidir. Ammo keltirilgan she`rda eng muhimi – bu Xan Yon Unning kitobxon bilan yaqin til topa bilish, uning qalbini junbushga keltirish, eng yorug` tuyg`ularni uyg`ota olish ko`nikmasi. Bu Xan Yon Un lirikasi obrazlar tizimining serma`noliligi bilan, har bir inson unda o`z qalbiga yaqin va unga hamohang bo`lgan narsani topa olishi bilan bog`liq. Xan Yon Un misralarning bunday tuzilishini yoqtirgan va undan o`z she`riy asarlarida ko`p marta foydalangan: birinchi misra yakunlovchi, oxirgi misra sifatida takrorlanadi. Bu faqat intonatsiyani o`zgartirish orqali o`z she`riy tafakkurini yoritish, qalbining alohida tuyg`ularga to`liq holatini aks ettirish imkonini beradi.

⁷ **Хан Юн Ун** 1996. 85.

“Shubha qilma, axir bu kundan-kunga kuchayib borayotgan og`riq...”, degan birinchi misra qanday bo`lishi kerak – g`amginmi yoki quvnoqmi, savol beruvchimi yoki yolvoruvchimi? Shoir bunga javob bermaydi. Bu yerda masalaning bitta, yagona uzil-kesil yechimi mavjud emas. Xan Yon Un kitobxonga fikrni mustaqil ravishda oxiriga yetkazish, mulohaza yuritish va o`z fantaziyasini ishga solish uchun imkoniyat beradi. U go`yo kitobxonni ijodga taklif qiladi, kitobxon tafakkuri va intuisiyasi ishlashi uchun keng imkoniyat yaratadi, unga she`riy misrani o`z ruhiy holati va kayfiyati bilan hamohang tusga keltirishga ruxsat beradi.

남은한

정물한안

그날의정물한안

남은한정물한안

그날의정물한안

정물한안

Men bu tun uxlay olmayman. Sukunat og`ushidagi tun,
Olov tillari ko`zlarni silab, mudroq ongni allalayapti.
Ammo tun uzun, kaminda olov o`chadi,
Faqat kul qoladi...
Mening muhabbatim – hatto tunda ham o`chmaydigan olov.

(“Sukunat og`ushidagi tun”)⁸

Bu she`r butun tiriklikka nisbatan rahm-shafqat, mehribonlik va hamdardlik, insoniylik ruhi bilan sug`orilgan. Ular Xan Yen Un she`riyatining mohiyatini, uning teran asosini tashkil etadi. Sevgining yo`qligi shoirning talqinida inson hayotining ma`naviy go`zalligini inkor etadigan

⁸한문시집 996. 88.

qalbning qashshoqligi daliliga aylanadi. Azob-uqubatlar va og`riq keltiradigan dunyoviy muhabbat, Xan Yon Un fikriga ko`ra, inson uchun baxt-saodatga, “hech qachon uchmaydigan olov”ga aylanadi.

사랑

사랑은 나의 생명이다

사랑을 잃고야 말

나는 무엇인가

사랑을 잃고야 말

Mening ko`zlarimga qarayotgan bo`lsangiz, nima uchun kulyapsiz,
Sizning xo`mraygan yuzingizni ko`rishni istar edim...
Sizga qarab turib, xo`mraygan yuzingiz menga yoqishini
Tushunaman. Ammo Sizga bu yoqmaydi va Siz buni yaxshi bilasiz.

(“Siz”)⁹

“Siz” she’rida yana Xan Yon Un she’riyatining Rabindranat Tagorning fasafiy lirikasi bilan aloqasi seziladi, zero biz bu yerda majozga boy misralarga duch kelamiz va bu umuman olganda koreys milliy an’anasiga xos emas. Shoir behuda g`ala-g`ovurlarga to`la bu dunyodan panoh izlamaydi, u muhabbatga murojaat etadi va uni faqat ayolga nisbatan munosabat sifatida emas, balki yanada keng ma’noda tushunadi. -~~나~~(Mening sevgilim), - deb yozadi u she’rlar to`plamiga so`z boshida, - faqat mening sevgilimgina emas, balki men erishishga intiluvchi barcha narsalardir”.

Xan Yon Un o`zi tavsiflayotgan dunyodan o`z quvonchini kitobxon bilan o`rtoqlashishgagina emas, balki hayotning to`laqonligi va go`zalligi tuyg`usini uning qalbiga joylashga ham harakat qiladi. Biroq uning she’rlarida ko`zga yaqqol tashlanadigan ohangjamalik va serma’nolilik ortida har doim qandaydir g`amginlik va ma’yuslik seziladi. Yaxshi kayfiyat, xursandlik, shod-xurramlik va dunyoviy borliqning to`laqonli mavjudligi ortida har doim qandaydir sir, inson hayotining qisqaligi,

⁹한국 문학시 -서울,1996. 89.

dunyoning foniyligi, inson baxtining omonatligi hissi kabi shoirning o'ziga xos falsafiy mulohazalari yashirinib yotadi. Bir qarashda quvonchga to'la bo'lib tuyulgan she'rlarning teran mazmunida ham qandaydir bir og'riq seziladi. Bu esa, o'z navbatida, hayotning go'zalligi, inson baxtining oliy qimmatiga haqidagi taassurotlarni kuchaytiradi. Inson baxti haqidagi orzu, uning uzoqdaligi, unga yetib bo'lmasligi va uning omonatligi bilan bog'liq izzatlar, insonga hamdardlik – bularning barchasi Xan Yon Un she'riyatiga xos bo'lgan, uning ilk she'rlarida ko'zga tashlangan va keyingi ijodiy davomida rivoj topgan xususiyatlardir. Bu esa, o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, hayotning omonatligiga, bor narsalarning qadriga yetishga undaydi.

Vaqt Xan Yon Un she'riyatiga o'z hukmini o'tkaza olmaydi. Shoirni to'liqlantirgan ko'pgina voqealar o'tmishda qolgan, uning she'rlariga mavzu bo'lgan voqelik o'zgargan. Ammo har bir yangi avlod Xan Yon Unda o'zi uchun yaqin va qadrlil bo'lgan nimanidir kashf etadi, chunki uning she'riyati insonga muhabbat, unga nisbatan hamdardlik ruhi va yuksak gumanistik ideallar bilan sug'orilgan.

Sentimental his-tuygular va falsafiy umumlashtirishlarga boy bo'lgan Xan Yon Un she'riyati ayni vaqtda romantik poeziya doirasidan chetga chiqmaydi. U Koreyada yapon istilochilari hukm surgan davrda ayniqsa kuchli vatanparvarlik ohangini kasb etadi. Xan Yon Un she'riyatining ayni shu xislati xalq e'tirofi va muhabbatini qozondi.

1931 yilda Xan Yon Unning buddizm falsafasiga bag'ishlangan asarlari chop etiladi. Bu davrda u nazm bilan bir qatorda, nasrda ham qalam tebrata boshlaydi. Uning ijodiy qiziqishlari samarasi o'laroq “**부**” (“Og'ir qismat”) qissasi vujudga keladi va 1938 yilda “**조선문학**” (“Koreya axborotnomasi”) gazetasida chop etiladi.

Xan Yon Un 1944 yilda vafot etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xan Yon Un she'riyati ikki omilga – buddizm falsafasi va “simvolizm” yangi adabiy yo'nalishiga tayanadi. Biroq amalda u rasman mavjud adabiy guruhlardan birortasining ham tomonini olmaydi. Xan Yon Un she'riyati muallifning voqelikka bo'lgan munosabatini tushunish imkonini beradi. Simvolizm, romantizm yo'nalishlarida ijod qilish jarayonida u Koreya milliy an'alariga xos bo'lmagan jonlantirish va allegoriya usullarini qo'llaydi. Xalqning ayanchli ahvoli, zolim protektorat haqida yozadi. Shu narsa diqqatga sazovorki, o'rta asrlarga xos bo'lgan zohidlikka, tarkidunyochilikka moyillik shoirga yot emas (“Zohid qo'shig'i”).

Sevgi lirikasi shoir ijodining ajralmas qismi hisoblanadi. Bir soʻz bilan aytrganda, Xan Yon Un ijodi koreys sheʼriyatida betakror hodisa sanaladi. U oʻzida nafaqat buddizm falsafiy qarashlarini , balki, oʻsha davrga xos boʻlgan yangi yoʻnalishlarni uygʻunlashtira olgan. Shu bois ham, Xan Yon Un shaxsi hozirgi vaqtda ham katta qiziqish uygʻotmoqda, uning ijodi esa yildan-yilga tobora keng eʼtibor qozonmoqda va buni uning qayta nashr etilayotgan koʻp sonli sheʼriy toʻplamlari ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Saydazimova U.T., Choy So Yong va b. “Zamonaviy koreys sheʼriyati antologiyasi”. Toshkent, 2014.
2. Галкина Л.В.Корейская поэзия 20-х годов XX века. - Владивосток,1988. С . 92
3. **한민족의 서정시** 1996.
4. Аманова Г.А. Корейская поэзия 20-х – 40-х гг. XX в. М.: 2007.
5. Рабиндранат Тагор. Жизнь и творчество. – М.:1986.
6. **정주 20 세기문학의 흐름 // 서정시** 2007.
7. Тэн А.А. Очерки корейской литературы XX века (до 1945). – Сеул.: 2003.

